

**Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта  
максус таълим вазирлиги  
Бухоро давлат университети**



**АДАБИЁТШУНОСЛИК ВА ТАРЖИМАШУНОСЛИКНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ: АДАБИЙ ЖАРАЁН, ҚИЁСИЙ  
АДАБИЁТШУНОСЛИК, УСЛУБШУНОСЛИК ВА ТИЛШУНОСЛИК  
МАСАЛАЛАРИ**

**Халқаро миқёсидаги илмий-амалий анжуман  
материаллари  
тўплами**

**Бухоро - 2022**

«Адабиётшунослик ва таржимашуносликнинг долзарб муаммолари: адабий жараён, қиёсий адабиётшунослик, услубшунослик ва тилшунослик масалалари» ҳалқаро илмий-амалий анжумани материаллари. Бухоро – 2022. - 224 бет

Бухоро давлат университетида Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 7 мартағи 101-ф-сонли Фармойиши ҳамда Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта маҳсус таълим вазирлигининг 2022 йил 14 мартағи 97-сонли буйруғи асосида 2022 йил 4 октябрь куни “**Адабиётшунослик ва таржимашуносликнинг долзарб муаммолари: адабий жараён, қиёсий адабиётшунослик, услубшунослик ва тилшунослик масалалари**” мавзусидаги ҳалқаро миқёсдаги илмий-амалий анжуманибўлиб ўтади.

**Масъул муҳаррир:**

**Менглиев Баҳтиёр Ражабович** – филология фанлари доктори, профессор  
**Тахрир ҳайъати:**

Д.И. Ходжаева, М.Қ. Бақоева, М.Б. Аҳмедова, Г.Ф. Назарова, Л.Ж.Жалилова,  
З.Т. Сафарова, М.Ж. Чориева

**Тақризчилар:**

**Нозимжон Бобожонович Атабоев** – филология фанлари бўйича фалсафа  
доктори, доцент

**Қаршибаева Улжан Давировна** - филология фанлари доктори, профессор

Мақолаларни тўпловчи ва нашрга тайёрловчи Инглиз адабиётшунослиги  
кафедраси доценти, ф.ф.ф.д. М.Б.Аҳмедова

Ушбу тўпламда жамланган мақолалар хорижий тилларни ўқитишнинг замонавий ёндашувлари ва истиқболлари, корпус лингвистикаси масалалари, медиалингвистика ва лингвистик тадқиқотлар, қиёсий адабиётшуносликнинг долзарб муаммолари, Ўзбекистонда таржима мактаби яратиш ва уни ривожлантиришда инновацион ғоя ва технологияларни қўллаш масалалари доирасида мутахассисларнинг тажриба ва фикр алмашинувини таъминлашга хизмат қиласи.

Asarning haqiqiy taftini his etamiz. Psixologizm adabiy janr rivojida o`ziga xos o`ringa ega. Zamonaviy adabiyot namunalari orasida psixologik roman, psixologik qissa va psixologik hikoya kabi nasriy janrlarni har bir xalq adabiyoti doirasida tadqiq etish va o`rganish bugungi kundagi dolzarb masalalardan biri bo`lib qolmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Гинзбург, Л. Я. О психологической прозе. О литературном герое. СПб.: Азбука, 2016.
2. Литературная энциклопедия терминов и понятий ; под ред. А. Н. Николюкина. М.: 2001 (<https://www.academia.edu/37372082/> ).
3. Есин А. Б. Психологизм русской классической литературы : учебное пособие. — М. : Флинта : Наука, 2011.
4. Адабиётшунослик лугати. Д.Куронов ва б. Т.: Академнашр, 2013.
5. Rajabov Akham Uktamovich, & Jalilova Lola Jalilovna. (2022). THE DEPICTION OF THE TEENAGERS` SOCIAL LIFE IN “HARRY POTTER”. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact Factor: 7.429, 11(04), 108–114.* Retrieved from <https://www.gejournal.net/index.php/IJSSIR/article/view/402>
6. Rajabov, A. O. Jalilova L.J .(2019). Psikhologizmi v detskoy literature. *Modern Scientific Research Journal. London, United Kingdom*, (10), 360-365.
7. Rajabov, A., & Jalilova, L. (2021). The peculiarities of psychological characteristics of the main hero in J. Rowlings heptalogy of Harry Potter. *International Engineering Journal for Research & Development*, 1-5.
8. Rajabov Akham Uktamovich, & Jalilova Lola Jalilovna. (2022). THE ROLE OF PSYCHOLOGISM IN THE DEVELOPMENT OF A LITERARY GENRE. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact Factor: 7.429, 11, 37–42.* Retrieved from <http://www.gejournal.net/index.php/IJSSIR/article/view/401>
9. Jalilovna, J. L., & Uktamovich, R. A. (2020). A sense of humor as an essential component of pedagogical optimism. *International Journal on Integrated Education*, 3(3), 29-34.
10. O'tkir Hoshimov “ Tushda kechgan umrlar” . “Meriyus” Toshkent. 2011

## JEYMS FENIMOR KUPERNING IJOD YO`LI BOSQICHLARI

**Maftuna Yoriyeva**

Master student, Bukhara State University,  
**Nodira Roziqovna Qurbanova f.f.f.d. (PhD)**  
Bukhara State University  
e-mail: maftunaerieva@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqoldaa XIX asrning birinchi yarmida yashab ijod qilgan mashhur amerikalik romannavislardan biri Jeyms Fenimor Kuper hayoti va ijodini bosqichlarda atroflicha o`rganib, tahlil qilinga va yozuvchi ijodining o`ziga xos xususiyatlari ko`rsatib o`tilgan.

**Kalit so`zlar:** Romantizm oqimi, AQSH kapitalizmi, hindular tasviri, demokratiya, mustamlakachilik, vatanparvarlik, Yevropa, Natti Bampo obrazi.

XIX asrning birinchi yarmida yashab ijod qilgan yirik romantik yozuvchi Jeyms Fenimor Kuper (1789—1851) Amerika Qo`shma Shtatlari adabiyotida ko`zga ko`ringan romannavislardan biridir.

Sarguzasht romanlar ustasi, romantizm namoyandasini Fenimor Kuper 1789-yili Nyu-York shtatida yirik yer egasi bo`lgan sudya oilasida tug`ildi. Otasining qishlog`i keyinchalik Kuperstaun nomi bilan kengayib ketadi. Bo`lajak yozuvchi dastlabki ma'lumotni Kuperstaunda olib, so`ngra Yel universitetiga o`qishga kiradi. Ammo universitetdan haydalib, savdo kemasida oddiy matros bo`lib ishlaydi. Bir yil o`tgash, harbiy kemaga xizmatga o`tadi. Uning otasi Amerika Qo`shma Shtatlari Kongressmeni edi. Uning oilasi keyinchalik Nyu Yorkga ko`chib

o`tadi. U savdo kemasida dengizchi sifatida ishlaydi, va 18 yoshida Amerika Qo`shma Shtatlari Harbiy dengiz flotiga qo`shiladi.

AQSH flotida xizmat qilgan Kuper juda ko`p mamlakatlarda bo`ladi. 1810-yili otasi vafot etgach, undan qolgan katta boylikka ega bo`lib, harbiy xizmatdan bo`shaydi. Uylanib, adabiy faoliyat bilan shug`ullanadi. Fenimor Kuper Amerika kapitalizmini keskin tanqid qilib chiqqan yozuvchilarining birinchisi edi. Kuper asarlarida Amerikada kapitalizm tartiblarining o`rnatilishi, mahalliy aholi bo`lgan hind qabilalarining yerlari tortib olinib, o`zlarining qirib tashlanishi ro`yi rost ko`rsatib beriladi.

Fenimor Kuper ijodi o`ziga xos xususiyatlari, xususan demokratizm, insonparvarlik, oddiy kishilar hayotini aks ettirishi bilan diqqatga sazovor. Kuper kitob o`qishni juda yaxshi ko`rardi, bir kuni u bir ingлиз romanini o`qib tugata turib xotiniga qarata “Men bundan ham yaxshiroq yozgan bo`lardim” deydi. Uning xotini Suzan esa uni o`z asarini yozishga undaydi va shu tariqa u o`z ijodini boshlaydi. Fenimor Kuper ijodini, xarakteriga ko`ra, uch bosqishga bo`lish mumkin: Birinchi bosqich - 1821-1826 yillar. Bu davrda adib Amerika inqilobi ideallariga yangi tartiblarni qarama-qarshi qo`yadi.

Kuper o`zining ilk asarini 1820-yilda e`lon qildi. Bu asarni u Jeyn Austenning romanlariga o`xshatib yozadi, lekin afsus u muvaffaqiyatlari chiqmaydi.

Ikkinci asari “Shipyon“ deb nomlanadi. U Volter Skottning bir to`plami asosida bo`lib, Amerikadagi sarguzashtlari haqidagi voqealarni o`z ichiga oladi. Bu asar bosh qaramoni Jorj Washingtonning shipyoni Janob Xarper haqida edi. Bu asar unga shuhrat keltirdi va anchagina boylik ham. Buning natijasida u oldin shug`ullanib yurgan fermerlik ishini tashladи. Keyin tezda yana bir qancha ishlarini chop ettirdi. 1823-yilga kelib, u “Jun Paypoq” turkumiga kiruvchi birinchi asarini nashrdan chiqardi. Bu asarning nomi “Pioneer”, yani o`zbek tilidagi tarjimasida “Chingachkuk fojeasi” deb nomlanadi. “Jun Paypoq” turkumiga kiruvchi asarlari asosan bosh qahramon Natti Bamponing yoshlik davridan to uning vafotigacha bo`lgan davrni o`z ichiga oladi va bu asarlarni u jami yigirma yil ichida yozib tugalladi. Ammo u nashr ettirgan asarlar ketma-ketligi tartibi bunga to`gri kelmaydi. Bu turkumga kiruvchi asalaridan eng mashhuri bo`lmish “So`nggi Mohikan” Kuper Nyu Yorkdaligida 1822-1826-yillarda yozib tugallangan. Bu kitob bir necha bor nashrdan chiqarildi va hattoki bu asar asosida bir qancha teledasturlar va filmlar ham olingan.

Natti Bampo haqidagi ikkinchi roman “So`nggi Mohikan” da Angliya bilan Fransiya o`rtasidagi bosqinchilik urushlari bilan fransuz mustamlakachilari hindu qabilalarini shavkatsiz qirib tashlayotgani manzarasi chizib beriladi. Bu romanda Natti Bampo ingliz razvedkachisi Burgut ko`z laqabi bilan, hindu qabilasidan bo`lgan Jon Mohikan esa Chingachkuk laqabi bilan qatnashadilar.

1826-yilda Kuper rasman ismiga Fenimor nomini qo`shib oldi va shu yili Kuper oilasi bilan Yevropaga ko`chib o`tadi va u yerda u asarlari ketidan qancha foyda ko`radi hamda bolalarining yanada yaxshiroq ta`lim olishlarini ta`minlaydi. U Parijda Qo`shma Shtatlarning Konsuli sifatida faoliyat yuritadi, shu vaqt mobaynida esa ko`pgina Yevropa mamlakatlariiga, jumladan Shvetsariya, Angliya, Italiya va Niderlandiyaga safar qildi. U Yevropadaligida ham yozishni davom ettiradi. Uning “The Red Rover” deb nomlangan asari Parijda chop etildi.

“Josus” (1821), “Lokman” (1823), “Pioneerlar” (1823), “Boston qamali” (1825), “So`nggi Mohikan” (1826) kabi romanlarida adib Amerika hayotidagi adolatsizliklarni, hind qabilalarining vahshiylarsha qirib tashlanayotganligini qoralaydi. Bu romanlarning qahramonlari vatanparvarlik, ozodlik ideallarini o`zlarida mujassamlashtiradilar. Ular yozuvchiga shon-shuhrat keltiradi.

Ikkinci bosqich - 1826-1833 yillarni qamraydi. Bu davr Kuper ijodining Yevropaga sayohat qilgan pallasiga to`g`ri keladi. Bu vaqtida yozuvchi “Mard” (1831), “Geydenmauer” (1832), “Jallof” (1833) kabi romanlarini yaratadi. Mazkur asarlar Yevropa mamlakatlari tarixiga bag`ishlangan. Yuqoridagi romanlarida muallif Yevropadagi monarxiya tuzumiga Amerika Qo`shma Shtatlariagi respublikachilik tartiblarini qarama-qarshi qilib qo`yadi.

1832-yilda u partiya yozuvchilarini ro`yxatiga kirdi va bir qancha maqolalarini chop ettira

boshladi. Keyinchalik u goh o`z izlanishlaridan kelib chiqib yozdi, gohida esa milliylik, ona vatan uchun yoza boshladi. Lekin hech qachon ikkalasida bir vaqtning o`zida ijod qilmadi. “The Bravo“ deb nomlanuvchi asarida Yevropalik respublikachilikka qarshi turuvchilarga hujum tariqasida o`z siyosiy qarashlarini aks ettirdi . Lekin bu asar Qo`shma Shtatlarda yaxshi kutib olinmadi. U yana o`z siyosiy qarashlarini o`z ichiga olgan bir nechta asarlar yozdi va uning asarlari ham Yevropada, ham Amerika Qo`shma Shtatlarda ko`pgina o`z kitobxonlariga ega bo`ldi.

1833-yilda Kuper Amerikaga qaytdi va “Xalqimga xat” deb nomlanuvchi asarini tezda chop ettirdi va unda u o`sha davrning eng siyosiy baxs-munozaralari haqidagi fikrlarini keltirib o`tdi. Va shu davrdan boshlab Kuper ijodining uchinchi bosqichi boshlandi. Bundan tashqari u Yevropaga ko`rgan kechirganlari haqida ham asarlar yozdi. 1834-yilga kelib u Kuperstounda avlodlaridan qolgan hashamatli Otsego saroyini qayta ochdi, biroq u uzoq turmadni va yana nuray boshladi. U bu yerda deyarli 16 yil davomida bo`limgandi. Boshida u qishni Nyu-Yorkda o`tkazdi va yozni esa Kuperstounda o`tkazdi, ammo Otsego saroyini o`zining doimiy qarorgohi sifatida saqladi. 1833—1851 yillarni o`z ichiga olgan uchinchi bosqichda Kuper ijodida siljish yuz beradi. Yozuvchining Amerika Qo`shma Shtatlari hayotiga, maqtalgan Amerika demokratiyasiga munosabatlari salbiy tus oladi. Boylik ketidan quvish avj olib, demokratik tushunchalar oyoq osti qilinayotganini ko`rgan adibning bu davrda yaratgan asarlari orasida eng e`tiborlisi “Monikenlar” (1835)da AQSH burjua tuzumi keskin hajv ostiga olinadi.

Yozuvchi ijodining uch bosqichini tahlil qiladigan bo`lsak, Kuper ijodining birinchi bosqichida demokratik tamoyillar va hindularning mustaqillik sari orzu-tilishlari tasvirlangan bo`lsa, ikkinchi bosqich adibning Yevropa mamlakatlariga qilgan sayohatlari to`g`risidagi sayohatnomalari va publisistik maqolalarini qamrab oladi. Jeyms Fenimor Kuper hayotining so`nggi yillarida yozilgan AQSH burjua tuzumini tanqid ostiga oluvchi asarlari uning ijodining yakuniy, uchinchi bosqichiga kiradi.

1851-yilning 14-sentyabrida Kuper olamdan o`tdi va uni otasining qabrini oldiga dafn qilishi. Bir qancha mashhur yozuvchilar, siyosatchilar va uning do`stlari vafoti munosabati bilan 1852-yilda uning sharafiga kecha uyuhshtirdilar. Insoniylik va vatan ozodligini e`zozlagan dunyodagi har bir kitobxon uchun Amerika adabiyotining gigantlaridan biri Fenimor Kuper nomi yaqindan tanishdir. Fenimor Kuper asarlari ayniqla, romantik, ajoyib-g`aroyib, shiddatli hamda qahramonona voqealarning shaydosi bo`lgan yoshlar uchun g`oyat azizdir. Shuning uchun ham uning vatanparvarlik, jasurlik va ma`naviy go`zallik sari jahonning barcha tillarida qayta-qayta nashr etilmoqda.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Romantizm oqim namoyandalaridan biri bo`lmish James Fenimor Kuper romannavislari orasida o`zining ko`p qirrali ijodi bilan Amerika adabiyotiga salmoqli ta`sir o`tkazgan. Yozuvchining 32 roman, 10 jildlik sayohatnomasi va ko`plab publisistik asarlari mavjud. Bu asarlar nafaqat kitobxonlar, balki boshqa ijodkorlarning ham diqqat e`tibori, tahsin va tanqidlariga sazovor bo`lgan. Adib o`zining serqirra ijodi bilan “Amerikalik Uolter Skott” deya zamondoshlari tomonidan ta`riflangan. U o`z davrining mashhurlari Washington Irving, R.V.Emerson, Nataniel Xavcorn, German Melville va Vilki Kollins kabi yozuvchilar bilan yaqindan do`st bo`lgan va ularning ba`zilari Kuper ijodiga ta`sir qilgan. Universitetni tugallay olmagan bo`lsada nafaqat adabiyot, balki siyosat sohasida ham o`z o`rnini egallay olgan zabardast yozuvchi sifatida yozuvchilar orasida muhokamalarga sabab bo`lgan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:**

1. Harpers New Monthly Magazine – The Haunted Lake(1-nashr).1872.pp.20-30.
2. Letter from Schubert to Franz fon Shober, November 12, 1828.
3. Абдулаева Л. Лексическая стилистика узбекской художественная литературе. Т.,1979
4. “Фенимор Купер асарлари таржималарида услубий воситаларнинг берилиши муаммоси” магистрлик диссертацияси(II боб). Илмий раҳбар: доцент

М.Сулаймонов. Бухоро. 2011.

5. <https://uz.drunkentengu.com/kuper-djeyms-fenimor-kratkaya-biografiya-knigi-3141>
6. <https://ziyouz.uz/jahon-nasri/jeyms-fenimor-kuper>  
[https://uz.wikiaro.ru/wiki/James\\_Fenimore\\_Cooper/First\\_endeavors](https://uz.wikiaro.ru/wiki/James_Fenimore_Cooper/First_endeavors)

## KEYT SHOPINNING “THE AWAKENING” ASARIDA FEMINIZM MAVZUSI

Tursunova Zarina,  
BuxDU, 2-kurs magistrant

Keyt Shopin bugungi adabiy dunyoda "Uyg'onish" romani muallifi sifatida tanilgan. O'z davrida juda ziddiyatli bo'lgan "Uyg'onish" asari o'n to'qqizinchi asrda tur mush qurgan ayolning ahvoliga bag'ishlangan va yaqinda qayta kashf etilgan va xuddi shu sabablarga ko'ra ochiq-oysin feministik matn sifatida tan olingan. Biroq, bu roman deyarli faqat fantastika kompozitsiyasida o'tkazilgan adabiy kar'yeraning eng yuqori cho'qqisini ifodalaydi. Aynan hikoya janrinining "o'zlashtirilishi" Shopinga o'zining so'nggi durdona asarini to'ldirishga, uning mavzuiy masalalariga eng mos uslubni ishlab chiqishga imkon berdi. Albatta, bu rivojlanish alohida-alohida sodir bo'lindi. Barcha yozuvchilarining o'z o'mishdoshlari bor va Shopen misolida, ayniqsa, bir kishi juda ta'sirli bo'lgan, fransuz qissalari yozuvchisi Gi de Mopassan 1880 yilda adabiy dunyoni "... benuqson ixcham nasr bilan belgilangan, diqqat bilan tanlangan ifodali tafsilotlar va qat'iy real xarakterlar" (Ewell, Keyt Chopin 19-bet).

Shopin qaysidir ma'noda frantsuz erkak yozuvchilar adabiy an'anasini "o'zlashtirgan" bo'lib, u Mopassanning qisqacha badiiy adabiyoti ko'rinishida o'zini namoyon qilgan. Bu uning ijodi bilan bog'liq tanqidlarda, so'nggi yillardagi tanqidlarda va uning zamonaviy sharhlovchilarining so'zlarida qayta-qayta ta'kidlangan haqiqatdir. Maupassant haqiqatan ham bir tanqidchi tomonidan Shopinning eng buyuk adabiy "ustozi" sifatida aniqlangan (Teylor p.159). Ammo uning ta'sirining eng to'g'ridan-to'g'ri tasdig'i Chopinning o'zi nashr etilmagan "Ishonchlar" (1896) inshosida keltirilgan. Bu yerda u frantsuz "ustasi" ga hayratini bildiradi, chunki u sakkiz yil oldin uning ertaklari to'plamiga "qoqinib" qolganiga munosabatini eslaydi: "...I read his stories and marvelled at them. Here was life, not fiction; for where were the plots, the old fashioned mechanism and stage trapping that in a vague, unthinking way I had fancied were essential to the art of story making. Here was a man who had escaped from tradition and authority, who had entered into himself and looked out upon life through his own being and with his own eyes; and who, in a direct and simple way, told us what he saw..."(p.700-701).

Shopinning qisqa hikoya shaklidagi badiiy yozuvi bu yuksak e'tiborning yana bir dalili sifatida ko'rish mumkin, garchi aniqroq bo'lsa ham. Ehtimol, eng yaqqol ko'riniib turibdiki, uning Mopassan shaklini qabul qilganligi, yozishning o'ziga xos jihatni frantsuz odamining o'zini eng ko'p tashvishga solgan (Dugan p.130-131). Uning qisqa fantastika tuzilishiga taqlid qilish hayratlanarli va Richard Fusko tomonidan o'zining Mopassan va Amerika qissasida uzoq vaqt davomida ishlab chiqilgan. Ammo uning yozish uslubining sohalari ham uning katta ta'siridan dalolat beradi: Shopinning ob'eaktiv psixologik realizmi, syujetdan ko'ra xarakterga urg'u berish, tejamkorlik va birlikka intilish va o'ziga xos axloqsizlik. Aniq parallelliklar frantsuz erkak va amerikalik ayolni bog'laydi.

Biroq, Shopinning qisqacha badiiy adabiyoti - uning o'ziga xosligi nuqtai nazaridan bu aniq parallellik doirasidan tashqarida nimalar borligi qiziqroq, chunki uning san'ati hech qanday tarzda oddiy taqlid emas. Shopin, Per Seyersted o'zining tanqidiy tarjimai holida ta'kidlaganidek, "... o'ziga xos jasorat va qarashga ega ..." (199-bet). Mopassan, shubhasiz, o'zining ijodiy ruhi uchun ilhom bergen, uning mavzulari va usullari uning ishida yaqqol ko'riniib turardi, lekin "...o'zining mustaqil ruhi va shaxsiy qarashlari bilan u butunlay o'zini tutdi" (129-bet). Shopinning ayol yozuvchi sifatidagi o'ziga xosligi, eng yaxshi holatda, frantsuz ta'siridan tashqarida gapiradi va bu ajoyib ayol ovozidir. Maupassantdan qabul qilgan frantsuz erkak shakli va uslubi o'z maqsadiga, ayolga xos pozitsiyani o'rganishga moslashtirilgan. U adabiy o'ziga

<b>2- ШЎЬБА. АДАБИЙ ТАНҚИДЧИЛИК, АДАБИЙ ЖАРАЁНЛАР, АДАБИЁТДА МИЛЛИЙ ҚАДРИЯТ ВА МАЊНАВИЯТ МАСАЛАЛАРИ.</b> .....	<b>53</b>
Dr. Firuze G\xfcl. THE FALL OF IDEOLOGIES GRAPES OF WRATH AND FAREWELL GUL'SARY!.....	53
Кондратьева Ирина Германовна, Хисматуллина Люция Гумеровна. ЭКСПРЕССИВНОСТЬ И СТИЛИСТИЧЕСКОЕ СВОЕОБРАЗИЕ РАССКАЗОВ К.МЭНСФИЛД.....	53
Дилрабо Кувватова. СҮНГИ ЙИЛЛАР ЎЗБЕК ДОСТОНЧИЛИГИДА МОДЕРН ИЗЛАНИШЛАР.....	55
Алланазарова Феруза Каримбердиевна. ЖАҲОН АДАБИЁТИДА ЗАМОНАВИЙ НАСР ТАКОМИЛЛИ.....	58
Сафарова Зилола Толибовна, Ўраева Дармон Саидахмедовна. Ч. ДИККЕНСНИНГ “НИКОЛАС НИКЛБИ” РОМАНИДА ТАЪЛИМ МАСАЛАСИ.....	59
U.S.Toirova. INGLIZ ROMANLARIDA IT ZOOSEMASINING TURLI XIL TALQINI .....	62
Odinaeva Nilufar Lukmonovna, Khudoyberdieva Kamola. THE TRAGEDY IN "MARTIN EDEN" BY JACK LONDON.....	64
Shaymardanov Abror Hamid o'g'li, Juraev Shohruh Baxtiyorovich. TABIIY TILNI QAYTA ISHLASH NAMUNALARI VA ULARNING XORIJIY TILLARNI O'RGANISHDAGI O'RNI.....	67
Муқимова Гулнора Рашидовна. ФИТОМОРФ МЕТАФОРАЛАРНИНГ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ .....	69
Рўзиев Я.Б. ВИЛҲЕЛМ ФОН ҲУМБОЛТ ТАЪЛИМОТИДА РУҲИЙ ҚУВВАТ БИЛАН ТИЛНИНГ ЎЗАРО МУНОСАБАТИ МАСАЛАСИ .....	71
Худойкулова Мархабо Аҳадовна. МЕСТО ЖАНРА ПОЛЕМИКИ УЗБЕКСКОМ ЛИТЕРАТУРНОМ КРИТИКЕ .....	74
Jalilova Lola Jalilovna, Axmedova Mohinur Farhodovna. PSIXOLOGIZMNING MUHIM JIHATLARINI J.K. ROVLINGNING “GARRI POTTER VA HIKMATLAR TOSHI ”ASARI ORQALI TAHLILI.....	76
Каримова Шахнозаҳон Каримовна. АСҚАР МАҲКАМ ШЕҶРЛАРИДА ИНВЕРСИЯ ....	79
Ollomurodov Arjunbek Orifjonovich. COGNITIVE STUDY OF METAPHORS: STRUCTURE AND USAGE.....	80
Qurbanova N. , Karimova Dilshoda Erkinovna. UILYAM BLEYKNING “LONDON” SHE'RIDA METAFORALARNING QO'LLANISHI .....	82
Jalilova Lola Jalilovna, Nematova Ro`zigul. O'ZBEK ADABIYOTIDA MILLIY RUHIYAT TASVIRI.....	84
Maftuna Yoriyeva, Nodira Roziqovna Qurbanova. JEYMS FENIMOR KUPERNING IJOD YO`LI BOSQICHLARI.....	86
Tursunova Zarina. KEYT SHOPINNING “THE AWAKENING” ASARIDA FEMINISM MAVZUSI .....	89
Choriyeva Muxlisa, Yandashova Munisa. THE IMPACT OF THE SECOND WORLD WAR ON THE LIVES OF PEOPLE IN REMOTE VILLAGES AND THE DEPICTION OF NATIONAL CHARACTERS REFLECTED IN “BETWEEN TWO DOORS” BY UTKIR HOSHIMOV.....	91
O.X.Ganiyeva, N.B. Aminova. JON STEYNBEKNING ASARLARIDA IJTIMOIY MUAMMOLAR TASVIRI.....	93
Mohinur Raxmuddinovna Sayliyeva. MARGARET MITCHELLNING “SHAMOLLARDA QOLGAN HISLARIM” ASARI FUNKSIONAL-DISKURSIV TAHLIL OBYEKTI SIFATIDA .....	95
Tukhtayeva Farida Ismatullayevna. CHINESE IN THE WORKS OF US WRITERS .....	98
Hamroyeva Sharifa Shukur qizi. VALTER SKOTT VA ABDULLA QODIRIY ASARLARIDA TARIXIY HAQIQAT VA BADIY TO'QIMA.....	100
Muxlisa Choriyeva Jumamurodovna. INGLIZ ADABIYOTIDA “G'URUR/QADR-QIMMAT” MOTIVINING IFODALANISHI .....	102